

IJTIMOYIY HIMOYAGA MUHTOJ QATLAMNI ISH BILAN TA'MINLASH VA TADBIRKORLIKGA YO'NALTIRISH

Umarova Dilrabo¹

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani 13-hudud kompleks

KEYWORDS

ijtimoiy himoya, strategiya,
psixologik, zamonaviy kasb,
hunarmandchilik, qo'llab-
quvvatlashlar.

ABSTRACT

Maqolada jamiyatning jismoniy imkoniyatlari kechlangan va ijtimoiy himoya zarur bo'lgan odamlarga psixologik, iqtisodiy va ijtimoiy yordam berish hamda ularni ish bilan band qilish to'g'risida qator takliflar keltirilgan. Shu bilan birga ushbu masalada mahallaning roli haqida alohida bayon etiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.16282797**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Inson bu olamda o'zining aqli, tafakkuri va ongi bilan boshqa mavjudodlardan ajralib turadi. Xo'sh, nega? Axir jonivorlarda ham aql bor-ku? Nimasi bilan inson farqli turadi? Albatta, odami zot aqlini to'g'ri yo'naltirishi bilan va qalbining mavjudligi tufayli danyo maxluqotlaridan yuqori o'rinda turadi. Bir-biriga mehr ko'rsatish, yordam berish, muhtojlarga ezgulik qo'lini cho'zish asl inson fazilatidir. Har bir kishilik jamiyatida, har bir davrda va har zamonda jismoniy zaif, imkoniyatlari cheklangan odamlar qatlami mavjud bo'lib kelgan. O'z davrining ziyoli, e'tiborli kishilari muhtoj, yetim, bevalar qatori bunday odamlarga ham alohida yordam ko'rsatganlar. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, qaysiki jamiyat yoki davlat o'z ichidagi nogironlarga yordam berar ekan, doimo yuksalib, qudrati oshib borganini ko'ramiz. Masalan, Sohibqiron Amir Temur o'z saltanatida yetimlar, muhtojlar, beva-bechoralar va nogironlar uchun alohida nafaqa joriy etgan. Boburiylar imperiyasi hukumdorlari (Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir) ham shu yo'lni tutganlar. Usmoniylar davlatida ham shunday nafaqa, ehsonlar bor edi. Davlatning qudrati, xalqning boy bo'lishi o'z navbatida ikki omilga bog'liq. Biri ilm, ikkinchisi yordam. Yuqorida aytib o'tganimizdak, agar, jamiyat o'z orasidagi yordamga muhtoj kishilarga ko'mak berar ekan, bundanda yuksak, bundanda kuchli birlashma bo'lmaydi.

Shu sababdan bizning mamlakatda ham qator sohalar bilan birga ijtimoiy himoyaga

muhtoj qatlamga ham alohida e'tibor qaratildi. "Yangi O'zbekistonda- el aziz, inson aziz", "Inson qadri uchun" kabi dolzarb shiorlar ostida bunday islohotlar hosilning bir mevasi bo'lib ko'rinadi go'yo. O'zbekiston Respublikasi prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 1-iyundagi berilgan " Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'satish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" farmoniga muvofiq "Ijtimoiy himoya milliy agentligi" tashkil etildi. Agentlik ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga yordam beruvchi davlat tizimi hisoblanadi. Bu tizim nogiron, boquvchisi yo'q yolg'izlar, keksalar va og'ir kasallikga chalingan insonlarga xizmat ko'rsatadi. Xalqimizning azaliy qadriyatlari va e'tiqodidan kelib chiqib, bu ishni juda katta yutuq va e'tibor mahsuli deb olsak bo'ladi, albatta. Bu agentlikda mahalla bo'limi ham alohida e'tiborga molikdir. Sababi, bizning tarixiy sivilizatsiyamiz, o'zbek xalqining turmush tarzi "mahalla" deb ataluvchi eng qadim birlashma bilan uzviy bog'liqdir. Mahalla har zamon o'zbek xalqi uchun kichik boshqaruv, jamoat qismi bo'lib kelgan. XX asrning boshlarida turli siyosiy to'qnashuvlar, Turkiston zaminida davrlar almashinuvi, inqiloblar kabi vaziyatlarda ham mahalla hech qachon o'z mavqeyini yo'qotmagan. Mustaqillik bizga ushbu tuzilmani davlat hokimiyatining bir qismi darajasiga olib chiqishga imkon yaratdi. Ming yillardan beri o'zini tutib kelgan bu yig'ilma endilikda davlatimizning eng kichik boshqaruv, hokimiyat tizimlaridan biri hisoblanadi.

Endi asosiy mavzuga to'xtalsak. Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam, asosan, nogironligi bor shaxslar ham, bugunning shiddatli rivojlanuvidan ortda qolmasligi kerak. Davrimizda keslik yuksalish, global o'zgarishlar ro'y bermoqda. Gohi sog'lom odam ham bir kun dunyodan uzilib qolsa, bir necha oy ortda qolib ketayotgandak go'yo. Endi bir o'ylang, bizki shunday holatda ekanmiz, jismoniy imkoniyatlari cheklangan insonlar qay ahvolda ekan? Ular ham oddiy insonlar singari o'qishni, rivojlanishni, hunar o'rganishni, o'zini-o'zi band qilish va hatto mehnat qilishni istaydi. Men o'z ish faoliyatimdagi bir voqeani kezi kelganda yozib o'tisni xohladim. Mahallamizdagi bir nogironligi bor ayol bilan uchrashgan edim. U bilan ancha dildan suhbat qurdik. Oila a'zolari, qarindoshlarining doimiy qaramog'ida turadi. O'sha ayol menga: "Men ham sog'lom insonlar kabi ishlashni, o'qishni xohlayman. Yaqinlarimni qiynab qo'yganman. O'zim ich-ichimdan his qilaman buni. Tunlari yig'lab chiqaman. Qandi endi men ham sog'lom bo'lsam-u o'zimni o'zim eplay olsam. Yoshlikda ham nogironligim tufayli o'qiy olmadim. Katta-katta orzularim bor edi. Ota-onam bechora meni holatimni ko'rib, men bechoraqa qarab olamdan o'tib ketdilar. Lekin, Yaratgan egamga malomatim yo'q. televizorda nogironlar ham o'z iste'dodlarini ko'rsatayotganini ko'rib yuragim og'riydi, qalban qattiq siqilaman",-deb yig'lagan edi. Bu holat kaminaga ancha ta'sir qilgan. Keyinchalik ikki yil o'tib "Ijtimoiy himoya milliy agentligi" tashkil etilgach shu kabi insonlar uchun juda quvondim. Prezidentimiz tashabbusi bilan nogironligi bor shaxslarga berilayotga teng imkoniyalar meni mamnun qildi. Bugun bunday insonlar ish bilan ham ta'minlanmoqda. Ko'plari hayotga qayta kelgan kabi o'zlarini his etmoqdalar. Bugungi asrimizda ko'plab mamlakatlar shunday yo'l bilan jismoniy zaif odamlarga ta'lim, ish va hunar berayotganini ko'ramiz. Shu yerda savol tug'iladi. Nima uchun ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini ish va tadbirkorlik bilan

taminlash kerak va bunda mahallaning roli qanchalik ahamiyatli? Keling avvalo bu borada jahon tajribasiga yuzlansak. Jahon sog'liqni saqlash tashlikoti hisobotiga ko'ra dunyoda 1 milliarddan ortiq nogironlar bor. BMT va JSS tashkiloti bunday shaxlarga psixologik va iqtisodiy ko'mak ko'rsatishga mamlakatlarni targ'ib etadi hamda mablag'lar ajratdi. Masalan, Avstraliyada 4,4 millondan ortiq nogiron shaxlarning 53,4 foizi doimiy ish bilan ta'minlangan. Buyuk Britaniyada esa bunday ko'rsatkich keying yillarga 20%ga oshgan. Fransiya va Luksemburg 2000-2006-yillarda nogironligi bor insonlar uchun alohada ish bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqdi. Bu esa keyingi yillarda ushbu davlatlarga ancha ustunlik olib keldi. Nogironlarni ish bilan ta'minlash — bu jamiyatning muhim masalalaridan biri bo'lib, ularning ijtimoiy integratsiyasi va iqtisodiy mustaqilligi uchun zarurdir. Dunyo bo'ylab turli mamlakatlarda nogironlar uchun ish bilan ta'minlashga qaratilgan turli dasturlar va strategiyalar mavjud. Quyida ba'zi jahon tajribalarini keltirib o'taman:

1. Qo'llab-quvvatlovchi qonunchilik

Ko'plab mamlakatlar nogironlarni himoya qilish va ularga ish berish uchun maxsus qonunlar ishlab chiqdi. Masalan, AQShda "Americans with Disabilities Act" (ADA) qonuni nogironlar uchun ish joylarida teng imkoniyatlar yaratishni ta'minlaydi. Ushbu qonun ish beruvchilarga nogironlarni ishga olishda diskriminatsiya qilmaslikni talab qiladi.

2. Ish beruvchilar uchun rag'batlantirish

Ba'zi mamlakatlar nogironlarni ishga olgan ish beruvchilarga moliyaviy rag'batlar, soliq imtiyozlari yoki subsidiyalar taklif qiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ish beruvchilar nogironlarni ishga olish orqali qo'shimcha moliyaviy yordam olishi mumkin.

3. Maxsus dasturlar va o'quv kurslari

Nogironlarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan maxsus dasturlar va o'quv kurslari ishlab chiqilgan. Bu dasturlar nogironlarning kasbiy ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Misol uchun, Kanada va Avstraliyada nogironlar uchun maxsus o'quv markazlari mavjud.

4. Ijtimoiy korxonalar

Ijtimoiy korxonalar nogironlar uchun ishlash imkoniyatlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu korxonalar nogironlarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular ko'pincha mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqaradi. Misol uchun, Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy korxonalar nogironlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

5. Texnologik yechimlar

Zamonaviy texnologiyalar nogironlarni ishga joylashtirishda katta yordam beradi. Masalan, masofaviy ish imkoniyatlari, maxsus dasturlar va qurilmalar nogironlarga o'z qobiliyatlarini namoyon etishga yordam beradi.

6. Ijtimoiy ongni oshirish

Nogironlarni ish bilan ta'minlashda jamiyatda ijtimoiy ongni oshirish ham muhimdir. Turli kampaniyalar va tadbirlar orqali nogironlarning qobiliyatlari va ularning jamiyatdagi o'rni haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkaziladi.

7. Xalqaro tashkilotlarning roli

BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar nogironlar huquqlarini himoya qilish va ularga ish bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. BMT ning Nogironlarni himoya qilish bo'yicha konvensiyasi (CRPD) nogironlarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan global yondashuvni belgilaydi.

Ushbu tajribalar nogironlarni ish bilan ta'minlashda samarali yondashuvlarni ko'rsatadi va har bir mamlakat o'z sharoitlariga mos ravishda bu tajribalarni qo'llashi mumkin. Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni ham jismonan, ham ruhan qo'llab quvvatlash respublikamizda ham so'nggi 2 yil ichida bir qancha darajaga o'sdi. Xususan, nogironligi bor ayol-qizlar "Ijtimoiy himoya agentligi" va banklar bilan hamkorlikda tikuv mashinalari, hunarmandlik anjomlari bilan ta'minlanmoqda. Birgina o'tgan 2024-yilda bizning hududda 6 nafar shunday xotin-qizlar tadbirkorlikka yo'naltirildi. Bu esa ularning ham shaxsi, hamk oilaviy daromadlari, farovonliklarini oshirishga yordam berdi. XXI asr zamonaviy texnologiyalar asri. Ushbu qatlamni ish bilan ta'minlashda kompyuter savodxonligi ham kata ahamiyatga ega. Mahallamizda o'z tashabbusim bilan bir qator ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish bo'yicha turli chora-tadbirlar o'tkazdim va o'tkazib kelmoqdaman. Bunda qatlam yoshlarini boshqa tengdoshlari bilan teng imkoniyatga ega ekanliklari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Albatta, o'ksik qalblar ruhi yana bir karra ko'tarilmoqda. Kichik tadbirkorlik (quyonchilik, parrandachilik, qo'l mehnati) kabi dasturlar ham juda samarali yo'lga qo'yildi. Bajarayotgan ishlarimizda ko'mak berayotgan tashkilotlar, jamg'arma va homiylarga, xususan, muhatram prezidentimizga o'z minnatdorchiligimni ushbu maqol orqali izhor etaman. Zero, bu jamiyatda hamma teng imkoniyat, barobar huquqga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamining holatini ijtimoiy-iqtisodiy tahlil qilish"
2. "Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va turmush farovonligini oshirish masalalari"
3. "Yangi O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyatlari"
4. "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning yangi vositalari joriy etiladi"